

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**HASANOV ULUG‘BEK ABDUSALOM O‘G‘LI**

**VAHBA ZUHAYLIY “TAFSIRU-L-MUNIR” ASARINING  
ZAMONAVIY TAFSIRSHUNOSLIKDAGI O‘RNI**

**24.00.02 – Qur’onshunoslik. Hadisshunoslik**

**ISLOM SHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата  
доктора философии (PhD) по исламоведению**

**Contents of dissertation abstract of the  
Doctor of Philosophy (PhD) on Islamic Sciences**

**Hasanov Ulug‘bek Abdusalom o‘g‘li**

Vahba Zuhayliy “Tafsiru-l-munir” asarining zamonaviy tafsirshunoslikdagi o‘rni.....3

**Hasanov Ulugbek Abdusalom ugli**

The role of Wahbah Zuhayli’s work “Tafsiru-l-munir” in the contemporary exegesis of the Qur’an.....23

**Хасанов Улугбек Абдусалом угли**

Роль «Тафсиру-л-мунир» Вахба Зухайли в современной экзегетике Корана.....43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

List of published works

Список опубликованных работ ..... 48

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**HASANOV ULUG‘BEK ABDUSALOM O‘G‘LI**

**VAHBA ZUHAYLIY “TAFSIRU-L-MUNIR” ASARINING  
ZAMONAVIY TAFSIRSHUNOSLIKDAGI O‘RNI**

**24.00.02 – Qur’onshunoslik. Hadisshunoslik**

**ISLOMSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Isl47 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ii.au.uz) hamda “ZiyoNET” axborot-ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayev Abdurashid Ganijanovich**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Muxametshin Rafik Muxametshovich**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Alloqulov Abdulatif Abdullayevich**  
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_” may soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (99871) 244-00-56; faks: (99871) 244-00-65; e-mail: info@ii.au.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. 153-raqam bilan ro‘yxatga olingan (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (99871) 244-00-56; faks: (99871) 244-00-65; e-mail: info@ii.au.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_” aprelda tarqatildi.  
(2024-yil 18 apreldagi 04-raqamli reyestr bayonnomasi.)

**D.R. Maxsudov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

**S.A. Rustamiy**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

**Z.M. Islomov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda islom dinining asl manbasi hisoblangan Qur'onning ma'no-mazmunini o'rganish va izohlashga qaratilgan ko'plab klassik va zamonaviy adabiyotlar yaratilgan. Zamonaviy tafsirshunoslik (أصول التفسير المعاصرة) adabiyotlari o'zida tafsirga oid mumtoz manbalardagi qarashlar hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlarini jamlagani bilan ahamiyatlidir. Vahba Mustafu Zuhayliyning "Tafsiru-l-munir: fil aqida va-sh-shari'a va-l-manhaj – التفسير المنير في العقيدة والشريعة والمنهج" (Islom aqidasi, shariati va asoslarini yorituvchi tafsir) asari bugungi kunda Qur'oni karim ma'nolarini to'g'ri anglash, oyatlardagi ilmiy mo'jizalarni tushunishda ilm-fandagi nazariyalardan to'g'ri istifoda etish borasida mufasssarning ko'p yillik izlanishlarini o'zida mujassam etgani, dunyo olimlarining e'tiboriga sazovor bo'lgani bilan boshqa tafsir kitoblaridan ajralib turadi. Asardagi zamonaviy tafsirshunoslikka oid yondashuv va talqinlarni tadqiq etish Qur'onni o'rta asr manbasi sifatida jamiyatdan ajralib qolganini da'vo qiluvchi toifalarga asosli raddiyalar berishda dolzarblik kasb etadi.

Dunyodagi ko'plab islomshunoslik ilmiy tadqiqot markazlarida Qur'oni karim oyatlarini zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan istifoda qilgan holda yanada kengroq ochib berish hamda amaliy ahamiyatini ko'rsatib berish, ular asosida yangi nazariyalarni ishlab chiqish borasida ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, Qur'ondagi huquqiy mavzularni o'rganish (أحكام القرآن), Qur'on ilmiy mo'jizalari (إعجاز القرآن), Qur'on tarixi (تاريخ القرآن), Qur'on grammatikasi (إعراب القرآن), Qur'ondagi nodir, daqiq iboralar (غرائب القرآن), tafsir usullari (أصول التفسير), tafsir qoidalari (قواعد التفسير), Qur'on ma'nolarining milliy qadriyatlar va odatlar bilan uzviy aloqalarini aniqlash, oyatlardagi o'zgarish va o'zgarishga yo'l berilgan masalalarni tahlil qilish kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Globallashuv davrida Qur'oni karim oyatlarini tafsir qilishda ilmiy talablarga rioya etmay noto'g'ri talqin qilish holatlarining oldini olishda zamonaviy tafsirshunoslikdagi ilmiy mezonlar va talablarni sohadagi mo'tabar manbalar asosida tadqiq etish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Yangi O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlar natijasida Qur'on ilmlari, tafsirshunoslik sohalarida bir necha yirik tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, Abu Mansur Moturidiyning "Ta'vilot al-Qur'on" nomli tafsir to'plamining ilmiy-izohli tarjimai nashrdan chiqdi. Najmiddin Kubro (544-618/1150-1221), Alouddin Samarqandiy (vaf. 538/1144), Najmiddin Umar Nasafiy (461-536/1069-1142) kabi allomalarning tafsirlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Shu bilan birga, "Qur'on va sunnatdagi ilmiy mo'jizalar" nomli kitob ham nashr etildi. Bu borada zamonaviy tafsirshunoslikka oid izlanishlar, sohadagi mo'tabar manbalar, xususan "ustoz-shogird" tizimi va oldingi mo'tabar manbalarga tayangani, shuningdek mo'tadilligi, mutaassiblik va jaholatni qoralashi bilan e'tirof etilgan "Tafsiru-l-munir" kabi akademik tafsir to'plamlari asosida olib borilishi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldagi O'RQ 699-son "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni, 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4802-son “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi va 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Zamonaviy tafsirshunoslik hamda Vahba Zuhayliyning “Tafsiru-l-munir” asarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar jahonning etakchi olimlari, tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan. G‘arb olimlaridan I.Goldziher, J. Wansbrough, R. Martin, T.Noldeke, S.Adams, M.Piotrovskiy, D.V.Frolov, E.Rezvan, F.Abdullaeva<sup>1</sup> kabilarning zamonaviy tafsirshunoslikka oid tadqiqotlari e’tiborga molik.

Sharq olimlaridan Muhammad Husayn Zahabiy, Manno‘ al-Qatton, B.Chetir, T.Ozders kabi olimlarning Qur‘on ilmlari yoki tafsir turlari mavzusidagi monografiyalari ko‘plab ma’lumotlarni o‘zida jamlagani bilan muhim ahamiyatga ega<sup>2</sup>.

Vahba Zuhayliy ilmiy merosiga bag‘ishlangan tadqiqotlardan eronlik olim Xadija Ahmad Big‘osh “Vahba Zuhayliyning “Tafsiru-l-munir”: aqida, shariat va manhaj asaridagi metodning tanqidiy tahlili”<sup>3</sup> nomli doktorlik dissertatsiyasida Zuhayliyning tafsir kitobidagi dalillash uslublari tahlil etilgan. Falastin Quds universiteti professori, doktor Arofat Abdul Hamid “Vahba Zuhayliy va ixtiyorotuhu-l-fiqhiyya fi-l-muomiloti-l-moliya al-mu’osira” (Vahbah Zuhayliy va uning zamonaviy moliyaviy munosabatlardagi fiqhiy qarashlari qiyosiy tahlili) nomli monografiyasida<sup>4</sup> Vahba Zuhayliyning islom iqtisodiyoti va moliyaviy

---

<sup>1</sup> Goldsier I. Islom tafsiri yo‘nalishlari / Arab tiliga tarjima va izohlar muallifi Abdulhalim Najjor. – Qohira, 1955; Wansbrough J. Quranic Studies: Sources and Methods of Scriptural Interpretation. – Oxford, 1977; Martin R.C., “Understanding the Qur’an in text and context”, History of Religions, XXI/4, 1982; Rippin A., “The Qur’an as literature: perils, pitfalls and prospects”, British Society of Middle Eastern Studies Bulletin. – London, 1983; Nyoldeke T. Qur‘on tarixi / Arab tiliga tarjima va izohlar muallifi J.Tomar. – Bayrut, 2004; Adams C.J., “Abu ‘l-‘Ala’ Mawdudī’s Tafhīm al-Qur‘an”, Approaches to the History of the Interpretation of the Qur‘ān, ed. A. Rippin.– Oxford, 1988; Пиотровский М.Б., Коранические сказки. – Москва, 1991; Фролов Д.В. Мусульманская экзегетика и Коран // Восток, 1992, № 6. - С. 73-88; Резван Э.А., “Адам и бану Адам в Коране (к истории понятий “первочеловек” и “человечество”)", Ислам. Религия, общество, государство. – Москва, 1984; Абдуллаева Ф. И. Персидская кораническая экзегетика: тексты, переводы, комментарии. СПб.: Петербургское Востоковедение, 2000. – 192 с.

<sup>2</sup> Amir Abdulaziz. Dirasot fi ‘ulum al-Qur‘on. – Bayrut: Dor al-furqon, 1983; Manno‘ al-Qatton. Mabohis fi ulum al-Qur‘on. – Bayrut: Mavsu‘at ar-risola, 1980. – B. 285-349; Muhammad Husayn az-Zahabiy. At-tafsir va-l-mufasssirun. – Qohira, 1995.

<sup>3</sup> Ahmadh Bighash, K. (2019). A Review and Criticism of Wahba Zuhayliys Method in al-Tafsīr al-Munīr fī al-‘Aqīda wa al-Sharī‘a wa al-Munhaj. *Journal of Contemporary Islamic Studies*, 1(2), P. 327-341.

<sup>4</sup> Abdulhamid Muhammad ibn Ibrohim. Vahba Zuhayliy va ixtiyorotuhu-l-fiqhiyya fil muomiloti-l- moliya al-muosira. – Falastin: Quds universiteti, 2017. 198 b.

munosabatlar mavzusidagi asarlarini tadqiq qilgan. Muhammad Ibrohim Hasan 2016-yilda e’lon qilgan “Zuhayliy va juhuduhu-n-nahviyya fi kitab at-Tafsiri-l-munir” (Vahba Zuhayliyning “Tafsiru-l-munir” asaridagi grammatik yondashuvi) mavzusidagi tadqiqoti<sup>5</sup> “Tafsiru-l-munir” asaridagi tilshunoslikka oid tahlillarni o’rganish bag’ishlangan.

O’zbek olimlaridan zamonaviy tafsirshunoslikka oid muhim izlanishlar olib borganlar qatorida Shayx Alouddin Mansur, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Shayx Abdulaziz Manzur, Muftiy Usmonxon Temirxon o’g’li, R.Obidov, A.Abdullayev, H.Lutfullayev va D.Maxsudov<sup>6</sup> kabi olimlarning monografiya va dissertasiyalari keng qamrovligi bilan ajralib turadi. Shunga qaramay mazkur tadqiqotlar tafsir ilmining tarixini o’rganish, tafsir uslublariga oid zamonaviy yondashuvlar tahliliga bag’ishlangan bo’lib, ularda keltirilgan ma’lumotlar mazkur dissertasiyaga manba bo’lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi izlanishlardan farqli ravishda ushbu dissertasiyada Vahba Zuhayliy “Tafsiru-l-munir” asarining zamonaviy tafsirshunoslik rivoji va takomillashuvidagi o’rni tadqiq etilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi.** Dissertatsiya O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2019–2025 yillarga mo’ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Islomshunoslik sohasini takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi” bandi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Vahba Zuhayliyning “Tafsiru-l-munir” asarining zamonaviy tafsirshunoslik taraqqiyotidagi o’rnini ko’rsatib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- Zamonaviy tafsirshunoslikdagi yo’nalish va tendensiyalarni tahlil etish;
- Vahba Zuhayliy ilmiy faoliyatini o’rganish va asarlarini tasniflash;
- “Tafsiru-l-munir” asari manbalarini yoritish va aniqlash;
- asarning tarkibiy tuzilishidagi o’ziga xos jihatlarini yoritish;
- muallifning oyatlarni tafsir qilishdagi yondashuvlarini ochib berish;
- “Tafsiru-l-munir” asaridagi fikrlarni hozirgi ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etishdagi o’rnini ko’rsatib berish;
- asarda oilaviy munosabatlarni sog’lomlashtirishga oid qarashlar tahlilini amalga oshirish;
- manbaning zamonaviy masalalar echimidagi ahamiyatini aniqlash va olingan xulosalar bo’yicha taklif, tavsiyalar ishlab chiqish.

<sup>5</sup> Muhammad Ibrohim Hasan. az-Zuhayliy va juhuduhu-n-nahviyya fiy kitab-t-tafsiru-l-munir. – Falastin: G’azo Islom universiteti, 2016. 324 b.

<sup>6</sup> Shayx Alouddin Mansur. Qur’oni Azim muxtasar tafsiri. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2020. 615 b.; Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. – Toshkent: “Hilol-Nashr” nashriyot-matba’asi, 2023. 3808 b.; Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: “TIU” nashriyoti, 2018. 618 b.; Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy. Tafsiri irfon. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2019. 4448 b.; Obidov R. Qur’on mavzularining ma’naviy-tarixiy ahamiyati. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2006. – B. 60-145; Abu Lays Samarqandiyning Movarounnahr tafsirshunosligida tutgan o’rni / Abdullaev A.; mas’ul muharrir: Z.Islomov. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2013; Lutfillayev X. Husayn Voiz Koshifiyning “Mavohibi Aliya” asari Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy hayotiga doir muhim manba: tar.fan.nomz. .dissert. avtoref. – Toshkent: “al-Faba-servis”, 2011; Abul Barakot an-Nasafiy va uning “Madorik at-Tanzil va haqiq at-ta’vil asari” (monografiya) / D.Maxsudov; mas’ul muharrir: Z.Islomov. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2014.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Vahba Zuhayliyning “Tafsiru-l-munir” asari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** “Tafsiru-l-munir”ning o‘ziga xos xususiyatlari, manbadagi oyatlarni tafsir etish uslublari va muallifning zamonaviy ijtimoiy, oilaviy va iqtisodiy masalalar echimiga qaratilgan xulosalarining ilmiy ahamiyati haqidagi ma’lumotlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertasiyada ilmiy bilishning tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, abstraktlashtirish kabi metodlar, strukturali-funksional tahlil, kompleks yondashish, tizimlilik, muammoviy-maqсадli, tarixiy-qiyosiy uslublar hamda matnlarni kontent-analiz qilish, ilmiylik, tarixiylik, diniy bag‘rikenglik, xolislik, islom diniga hurmat bilan yondashish hamda mutaassiblikka murosasizlik kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

muallif “Tafsiru-l-munir”da oyatlar tafsiridan so‘ng “voqelik fiqhi” (فقه الحياة) sarlavhasi ostida ularning inson va zamonaviy jamiyat hayotiga aloqadorligini ko‘rsatib bergani natijasida Qur’onni bugungi kun bilan bog‘lab tushunish imkoniyati oshgani asoslab berilgan;

Vahba Zuhayliy tafsiri tarkibiy tuzilishi qiyosiy tahlili natijasida mufassir mazmunan bir-biri bilan bog‘liq oyatlarni alohida sarlavha ostida sharhlab berishi orqali hozirgi kunda ularni kontekstdan ajratib olgan holda tushunish va talqin etish borasida yangi uslubga asos solgani aniqlangan;

“Kimni zalolatga ketkazishni iroda qilsa, uning ko‘ksini xuddi osmonga ko‘tarilayotgandek, tor va tang qilib qo‘yadir...” oyati sharhida mufassir klassik tafsir manbalaridan farqli ravishda, inson yuqoriga ko‘tarilgani sari kislorod etishmasligi oqibatida “ko‘krak qafasidagi torayish, siqilish”ning kelib chiqishi deb ta’vil qilish orqali zamonlar osha Qur’onning yangi ma’nolari ochilib borishini asoslab bergani dalillangan;

mufassir boshqa din vakillari bilan yaxshi munosabat o‘rnatishga oid oyatlar izohida ko‘rsatilgan hukmlar nasx bo‘lmagani (amaldan qolmagani)ni ta’kidlab, oyatlarda turli din vakillarini taraqqiyot va rivojlanish yo‘lida hamkorlik qilishga chaqirilgani asosida Ilohiy kitobda bag‘rikenglik targ‘ib etilgani ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

XIX-XX asrda mufassirlar ilmiy-faoliyatida Qur’onni zamonaviy ilmiy-taraqqiyot yutuqlari bilan qiyoslab, yanada chuqur ma’nolarini ochib berish muammosi yuzaga chiqqani sabab zamonaviy tafsirshunoslikning ilmiy tafsir, mavzuviy tafsir, vahiy tartibidagi tafsir, adabiy tafsir hamda ijtimoiy tafsir kabi tasniflar vujudga kelganligi asoslangan.

XX asrga kelib Vahba Zuhayliy tafsirshunoslik sohasida yaqqol burilish qilib, Qur’oni karimni sharhlashda ikki klassik uslub (tafsir bi-l-ma’sur va tafsir bi-r-ray)larni birlashtirib qorishiq uslubga asos solgani aniqlandi.

Vahba Zuhayliy “Tafsiru-l-munir” asari manbalari o‘rganilib, olim oyatlarni sharhlashda zamonaviy manbalar barobarida klassik tafsir kitoblaridan ham foydalangan bo‘lib, ulardan ba’zi o‘rinlarda aynan jumlani o‘zini iqtibos qilib keltirgan bo‘lsa, ba’zi o‘rinlarda manbadagi fikrlarni mazmunan keltirib, tafsir bil-



ma'sur toifasiga kiruvchi asarlarga 303 o'rinda, tafsir bir-ray toifasiga kiruvchi tafsirlarga esa 608 o'rinda murojaat qilgani ochib berildi;

olim Qur'oni karim oyatlarini mazmun-mohiyatiga binoan sarlavhalarga ajratib, ushbu oyatlardan kelib chiqadigan hukmlarga monand (misol tariqasida Isro surasining 66–70-oyatlariga “بعض نعم الله تعالى على الإنسان” - Alloh taoloning insonlarga bergan ayrim ne'matlari” mavzusi berilgan) nomlar berib chiqqani yoritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda metodologik bazaning yaratilgani, Sharq va g'arb islomshunoslik maktablarida shakllangan qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgani, ilmiy xulosalarni ilgari surishda “Tafsiru-l-munir” asarining 1998, 2015 yildagi nashrlari matniga tayanilgani, dalillar bilan asoslanganligi hamda zamonaviy qiyosiy-tarixiy usullardan foydalanganida o'z aksini topgan. Qolaversa, tadqiqotning maqsad va vazifalarini yoritishga qaratilgan axborotlarning asosiy qismi ilmiy va tarixiy adabiyotlar, soha olimlari asarlari, rasmiy saytlar materiallari, “Journal Impact Factor” kabi xalqaro ilmiy bazalar, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallardan istifoda etilgani hamda tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq qilingani, ularning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy tafsirshunoslik metodlari, oyatlarni sharhlash va izohlash amaliyotining o'ziga xos mezon va xususiyatlarini o'rganish hamda muqaddas manbalarni noto'g'ri talqin etilish muammolarini oldini olish bo'yicha ilmiy-nazariy bilimlar boyishi va yangi tadqiqotlarni shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati zamonaviy tafsirshunoslik faoliyatini o'rganishning tarixiy, falsafiy va diniy-ilmiy asoslari, xulosalari, ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlar merosi va tajribasidan foydalanish bilan izohlanadi. Shu bilan birga tadqiqot materiallaridan “Qur'onshunoslik”, “Qur'on tafsirlarini qiyosiy o'rganish”, jumladan, “Tafsir ilmi” va “Qur'on ilmlari” fanlari bo'yicha fan dasturlari va o'quv qo'llanmalari tayorlashda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Vahba Zuhayliy “Tafsiru-l-munir” asarining zamonaviy tafsirshunoslikdagi o'rni va asarda kelgan oyatlarni tafsir etishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan taklif va ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida:

muallif “Tafsiru-l-munir”da oyatlar tafsiridan so'ng “voqelik fiqhi” (فقه الحياة) sarlavhasi ostida ularning inson va zamonaviy jamiyat hayotiga aloqadorligini ko'rsatib bergani natijasida Qur'onni bugungi kun bilan bog'lab tushunish imkoniyati oshgani asoslab berilgani haqidagi ilmiy xulosa va tavsiyalardan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazida diniy ta'lim muassasasi o'qituvchilari hamda imom-xatiblar uchun tashkil etilgan malaka oshirish kurslari o'quv rejalarini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2024-yil 28-fevraldagi 02-02/02/1/580-sonli ma'lumotnomasi). Natijada diniy ta'lim o'qituvchilari va

soha xodimlarining zamonaviy tafsirshunoslikda shakllanayotgan yangi yondashuvlar va tamoyillar to'g'risidagi bilimlari oshishiga erishilgan;

Vahba Zuhayliy tafsiri tarkibiy tuzilishi qiyosiy tahlili natijasida mufassir mazmunan bir-biri bilan bog'liq oyatlarni alohida sarlavha ostida sharhlab berishi orqali hozirgi kunda ularni kontekstdan ajratib olgan holda tushunish va talqin etish borasida yangi uslubga asos solgani aniqlanganiga oid ilmiy xulosalardan Imom Termiziy xalqaro markazi tomonidan tayyorlangan "Sunani Termiziy sharhi" kitobining mazmuniga singdirilgan (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 28-martdagi 01-08/26-son ma'lumotnomasi). Natijada oyatlarning mazmunan qamrovini o'rganish va ularni tushunishda shakllangan ma'lum tartib-qoidalar, mezonlar mavjudligi haqidagi ma'lumotlar ilmiy jamoatchilikka etib borishiga xizmat qilgan;

"Kimni zalolatga ketkazishni iroda qilsa, uning ko'ksini xuddi osmonga ko'tarilayotgandek, tor va tang qilib qo'yadir..." oyati sharhida mufassir klassik tafsir manbalaridan farqli ravishda, inson yuqoriga ko'tarilgani sari kislorod etishmasligi oqibatida "ko'krak qafasidagi torayish, siqilish"ning kelib chiqishi deb ta'vil qilish orqali zamonlar osha Qur'onning yangi ma'nolari ochilib borishini asoslab bergani dalillanganiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi Toshkent islom instituti talabalariga o'qitiladigan "Tafsir", "Qur'on qiroati va ilmlari" fanlarining o'quv rejalariga "Zamonaviy tafsirshunoslik asoslari" modulini kiritish va ma'ruza matnlarini tayorlashda foydalanilgan (O'zbekiston musulmonlari idorasining 2024-yil 28-fevraldagi 02-03/527-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalar hamda diniy soha xodimlari uchun tashkil etilgan darslar va o'quv kurslari mazmunan boyitilishiga erishilgan;

mufassir boshqa din vakillari bilan yaxshi munosabat o'rnatishga oid oyatlar izohida ko'rsatilgan hukmlar nasx bo'lmagani (amaldan qolmagani)ni ta'kidlab, oyatlarda turli din vakillarini taraqqiyot va rivojlanish yo'lida hamkorlik qilishga chaqirilgani asosida Ilohiy kitobda bag'rikenglik targ'ib etilgani ochib berilganiga oid ilmiy xulosalardan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan tayyorlangan "Sahihul Buxoriy sharhi" (1-jild) nomli kitob mazmuniga singdirilgan (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 19-fevraldagi 02/63 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, shariatning asosiy manbalaridagi amalda bo'lgan shar'iy masalalarni to'g'ri tushunish va talqin etish, bu boradagi ayrim tushunchalar mazmuni to'g'risida aholida bilimlar oshishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Ilmiy tadqiqot ishining natijalari jami 11 ta, jumladan, 7 ta respublika va 4 ta xalqaro konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 6 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, sakkizta paragrafga bo'lingan uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 131 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, o'rganish obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotasiyasi va e'lon qilinganligi, dissertasiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Zamonaviy tafsirshunoslik masalalarini o'rganishning metodologik yondashuvlari”** deb nomlangan birinchi bobida tafsir ilmining shari'at ahkomlarini tushunishdagi ahamiyati, uning tarixiy ildizlari, shakllanish va rivojlanish bosqichlari, fanning mavzularini tadqiq etishda yuzaga kelgan zamonaviy yondashuv va yo'nalishlar hamda zamonaviy tafsirshunoslikning yorqin vakili Doktor Vahba Mustafu Zuhayliyning ilmiy faoliyati, asarlari va tafsir sohasidagi takomillashuvida tutgan o'rni ochib berilgan.

Birinchi bobning birinchi paragrafi *“Zamonaviy tafsirshunoslikdagi yo'nalishlar va tendensiyalar tahlili”* deya nomlanib, unda mufassir olimlarning zamonaviy tafsirshunoslikning o'ziga xos xususiyatlari, uslublari va shakllanayotgan tendensiyalari hamda mavzularni tahlil qilishda farqli yondashuvlari o'rganilgan va ularning xulosalalari tahlil etilgan. Tafsir ilmi har doim zamon talablari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularning Qur'oni karim oyatlari bilan munosabatini aniqlash va ochib berishga harakat qiladi. Shuningdek, vaqt o'tishi bilan o'rganilgan va kashf etilgan ilmiy yutuqlardan unumli foydalanib, oyatlardagi chuqur ma'nolar va mo'jizalarni ochib berish tafsir ilmining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda zamonaviy tafsirshunoslik ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. So'ngi ikki asrda juda katta ijtimoiy o'zgarishlar ro'y berdi va jamiyatda yuzaga kelgan muammolarni hal etish masalasi tafsir sohasida markaziy o'rinni egalladi. Shu jihatdan aytish mumkinki, zamonaviy tafsirshunoslik ijtimoiy hayotdan ko'p ta'sirlangan. Zamonaviy tafsirshunoslik Qur'oni karimni zamonaviy talqin etishni, zamonaviy talqin esa, shar'iy asos va talablar doirasida bo'lishini taqozo etadi.

Zamon muammolariga echim topish, jamiyatni yaxshi tomonga yo'naltirish uchun yangidan-yangi tafsir manbalari yozilishi zarurligini zamonaviy tafsirshunoslar ko'p ta'kidlaydilar.

Zamonaviy tafsirshunoslik tamoyillaridan biri, Qur'on oyatlarini ilmiy kashfiyotlar bilan bog'liq holda tahlil etish. Amerikalik biolog olim Entoni Standen aytganidek ilm-fan modernizmning asosiga aylandi. Ya'ni, zamonaviy inson ilmga katta ishonch bildirgani tufayli ba'zi mufassirlar ham o'z ishlarida bu jihatga ahamiyat berishga majbur bo'ldilar, deydi. Zamonaviy tafsirshunoslik zamonaviy texnologiyalardan ham unumli foydalanganini Tantoviy (1870-1940) o'quvchiga tushuntirish niyatida tafsirlariga ko'plab o'simliklar, hayvonlar va tabiat manzaralarining suratlarni qo'yganida ko'rish mumkin. Mavdudiy (1903-1979) Qur'onda tilga olingan joylarga ilmiy safarlar qilib, o'z tafsir kitobiga kiritgani ushbu yo'nalishdagi ilk tadqiqot sifatida baholanadi. U tarixiy voqealar va

urushlarni o'rganar ekan, vaqti-vaqti bilan xarita va fotosuratlar, arxeologik topilmalar suratlarini ham tafsir kitobida ilova qilgan. Natijada u sayohati mobaynida qo'lga kiritgan xarita va chizmalardan iborat ma'lumotlarni 14 surada 29 ta ko'rgazmali material sifatida keltirganini ko'rish mumkin.

Zamonaviy tafsir harakati tanqidiy xususiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Jumaladan, ba'zi mumtoz davr mufassirlari asarlarida nahv, balog'at va fasohat kabi masalalarni kengaytirib, cho'zib yuborishgani tanqid qilinadi<sup>7</sup>. Shuningdek, Qur'onning mazmuni umumiy va umumbashariy degan tamoyilni qabul qilgan holda ba'zi oyatlarni tushunishga yordam beruvchi sababi nuzul rivoyatlariga asoslanib, oyatlarni xoslashtirishga e'tiroz bildiradi<sup>8</sup>. Biroq, klassik tafsirni tanqid qilish ularni chuqur o'rganishga hissa qo'shdi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, so'nggi yillarda tafsir tadqiqotlaridagi eng katta sa'y-harakat va tadqiqotlar ilk davr tafsiri bilan tafsirshunoslikni rivojlantirish sohasida bo'lgani ko'zga tashlanadi. Shuningdek, bu yo'nalishda xurofotlarni – mifologik unsurlarni yo'q qilish va Qur'onni yanada aniqroq tushunishga qaratilgan sa'y-harakatlar mavjud bo'lishi bilan birga, ratsionalizmning salbiy oqibatlari va insonlar Qur'ondan yuz o'girishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi. Boshqacha qilib aytganda, haddan tashqari ratsionalizm Qur'onning muqaddasligini zaiflashtirish va unga zarar etkazishi mumkin. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, musulmonlarning zaiflashuviga salibchilarga qarshi kurashishlari emas, balki g'arbda buzg'unchi aqidaning paydo bo'lishi, moddaparast va dahriylik sabab bo'lgan<sup>9</sup>.

Bugungi kunda zamonaviy tafsirlarda turfa-xillik yaqqol ajralib turadi. Ilmiy tafsir, mavzuviy tafsir, vahiy tartibida tafsir, adabiy tafsir ijtimoiy tafsir kabi turkumlar bularga yaqqol misol bo'la oladi. Lekin bu turfa-xillik tafsir uchun xos narsa emas. Chunki islom shariatidagi zamonaviylashishga nisbatan mufassirlarlarning munosabati din va siyosat-jamiyat borasida farq qiladi. Shuni tushunish kerakki, islom ulamolarining siyosiy-ijtimoiy qarashlari, ayniqsa, hozirgi kunda bir-biridan keskin farq qiladi.

Bobning "*Vahba Zuhayliy ilmiy merosi tasnifi*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida Doktor Vahba ibn Mustafu Zuhayliyning hayoti va ilmiy faoliyati yozgan asarlari, maqolalari va amalga oshirgan tadqiqotlari haqida ma'lumotlar jamlanib, asarlarining sohalar kesimida tasnif etilgan.

Dunyo darajasida e'tirof etilgan suriyalik islomshunos olim, bir necha davlat va xalqaro tashkilotlarning doimiy a'zosi hamda ko'pgina yirik ilmiy markazlarning faol vakili sifatida islom huquqi va xalqaro huquq, islom moliyasi, tafsir, hadis ilmi, siyrat bo'yicha ko'plab asarlar muallifi Doktor Vahba ibn Mustafu Zuhayliy 1932 yil Suriyaning Damashq shimolidagi "Diyar Atiyya" shaharchasida tug'ilgan. Otasi Mustafu Qur'oni karimni to'liq yod olgan va din ilmlari bilimdoni edi. Shuningdek, dehqonchilik va tijorat bilan shug'ullangan. Onasi Fotima ham ziyoli, oqila ayol bo'lib, asosiy e'tborini farzand tarbiyasiga qaratgan edi.

<sup>7</sup> Muhammad ibn Sabbog'. Lamahot fi ulumi-l Qur'on. – Bayrut: al-Maktabatu-l islomiy, 1990. – B. 318.

<sup>8</sup> Rashid Rizo. Tafsiru-l-manor. –Qohira: Doru-l-Manor, 1947. – B. 298.

<sup>9</sup> Hamd ibn Sodiq Jamol. Ittijohotu-l-Fikri-l-Islami-l-Muosira fil-Misr. J. I. – Ar-Riyod: Doru olami-l-kutub, 1994. – B. 60.

Vahba Zuhayliy ilk tahsilni tug‘ilgan qishlog‘idagi o‘rta ta‘lim maktabda, keyinchalik 1952 yil Damashqga ko‘chib o‘tib maktab ta‘limini a‘lo baholar bilan tamomlagan. Zuhayliyning bu davrda asosiy ustozlari Shayx Abulhasan Qassob bo‘lganini o‘z yozishmalarida ta‘kidlab o‘tgan. Universitet ta‘limini Misr Arab Respublikasidagi al-Azhar universitetida davom ettirib, 1956-yili “Shariat-qonunchilik” yo‘nalishini tamomlagan. 1963 yilda Islom shariati ixtisosligi bo‘yicha “Islom huquqshunosligida harbiy qonunlari: sakkiz mazhab va xalqaro huquq o‘rtasidagi qiyosiy tadqiq” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Vahba Zuhayliy fiqh, tafsir, arab adabiyoti sohalar bilan birga zamonaviy huquq va sotsiologiya fanlarini nazariy va amaliy tarzda chuqur bilgan olim bo‘lib shakllandi. Faoliyati davomida Damashq universitetida islom huquqidan dars berish bilan birga Liviyadagi Bing‘ozi universiteti yuridik fakulteti, Birlashgan Arab Amirliklari Milliy Universitetining shariat huquqi fakulteti va Ar-Riyod Islom universitetining shariat fakulteti talabalariga huquq va shar‘iy qonunchilik bo‘yicha muntazam ma‘ruzalar o‘qib borgan. Shuningdek, o‘nga yaqin respublika va xalqaro doiradagi ta‘lim va diniy tashkilotlarning mas‘ul vazifalarida faoliyat olib borgan. Jumladan, Suriyadagi Oliy Fatvo kengashi a‘zosi, Saudiya Arabistoni, Jidda shahridagi Islom Fiqhi akademiyasi a‘zosi, Saudiya Arabistoni, Makka shahridagi Islom Fiqhi kengashi a‘zosi, AQSH, Sudan va Hindistondagi Fiqh akademiyalari a‘zosi, Iordaniya qirollik akademiyasi a‘zosi, Bahrayndagi Islomiy mudoraba va lizing kompaniyasining Shariat kuzatuv kengashi raisi; keyinchalik Arab bank korporatsiyasi (Arab Banking Corporation) tarkibidagi ABC Xalqaro Islom banki Shariat kengashining raisi, Damashqdagi Buyuk arab ensiklopediyasi, Quvayt Fiqh ensiklopediyasi, Qiyosiy yurisprudensiya jurnalining maslahat kengashi a‘zosi bo‘lgan.

Doktor Vahba Zuhayliy ilmiy merosining mazmun va hajm qamrovi juda keng bo‘lib, ilm-fanning turli sohalariga yuzdan dan ortiq fundamental asarlar yozgan. Olimning asarlari orasida “Tafsiru-l-munir: fil aqida va-sh-shari‘a va-l-manhaj” (Islom aqidasi, shariati va asoslarini yorituvchi tafsir) 16 jild, “Mavsu‘a fiqhi-l-islamiy va qozoya-l-muosira” (Islom huquqi ensiklopediyasi va zamonaviy masalalar) 14 jild, “Fiqhu-l-islamiy va adillatuhu” (Islom huquqi va dalillari) 8 jild, Zavobitu-sh-shar‘iya (Shar‘iat mezonlari), 3 jildli “Al-Mustofa min ahadisi Mustofa” (Muhammad Mustafo (s.a.v.)ning hadislaridan saylanma) asarlari kabi bir necha jilddan iborat to‘plam shaklidagilari ham mavjud. Shuningdek, xalqaro doirada tayorlangan 4 ta Islom ensiklopediyasiga salmoqli hissa qo‘shgan.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi **“Tafsiru-l-munir” asarining manbaviy asoslari va uslubiy xususiyatlari** “ deb nomlanib, unda “Tafsiru-l-munir” asarining yozilish tarixi, oyatlarni tafsir qilishda muallifning uslub va yondashuvi, tayanilgan manbalari, asar o‘z ichiga olgan mavzular qamrovi yoritib berilgan.

Bobning *“Tafsiru-l-munir” asari manbalarining tasnifi*” deb nomlangan birinchi paragrafida Vahba Zuhayliyning “Tafsiru-l-munir” asari tayanch manbalari aniqlanib, avvalo ular bir necha tur taqsimotda tasnif etilgan. Shuningdek, asar manbalarining o‘z sohasidagi ilmiy qiymati tahlil etilgan. Mashhur faqih va mufassir doktor Vahba Mustafo Zuhayliy “Tafsiru-l-munir”

nomli tafsir to‘plamini yozishga bir necha ilmiy asarlarini yozib tamomlaganidan so‘ng hamda o‘ttiz yillik ilmiy va amaliy tajriba to‘plaganidan keyin kirishganini muqaddimada takidlab o‘tadi. Avvalroq, boshqa bir tafsir kitobi “Tafsiru-l-vajiz” asarini ham ta’lif etgan bo‘lib, ushbu manbadan ko‘p o‘rinda iqtibos keltirgan. Biroq, Vahba Zuhayliyning ikki tafsir kitobi o‘rtasida bir necha farqli jihatlarni kuzatish mumkin.

Vahba Zuhayliy “Tafsiru-l-munir” manbalarni shartli ravishda uch turga: “Tafsiru-l-bilma’sur” toifasidagi tafsir manbalari, “Tafsir bir ra’y” toifasiga mansub tafsir manbalari, zamondosh olimlar qalamiga mansub tafsir manbalariga ajratish mumkin:

Birinchi tur manbalaridan asosan quyidagi asarlardan keng istifoda etgan:

“Jami’ul bayon fi tafsiri-l-Qur’on” (“Qur’on tafsiriga oid bayonlarni jamlovchi asar”) tafsiridan Vahba Zuhayliy 77 marotaba foydalangan. “Tafsiru-l-Qur’oni-l-karim” (Qur’oni karimning tafsiri) asaridan Vahba Zuhayliy 224 o‘rinda iqtibos keltirgan. “Fathu-l-Qodir” nomli tafsir asaridan faqatgin ikki o‘rindagina foydalangan.

Vahba Zuhayliy foydalangan ikkinchi turkum – “Tafsir bir ra’y”ga mansub tafsir manbalari ro‘yxati uzun va xilma-xil bo‘lib, bu muallifning asosiy mutaxassisligi (huquqiy) soha ekani va tafsir kitobida ham ko‘proq ushbu yo‘nalishga ahamiyat qaratgani bilan asoslanadi. “Tafsiru-l-munir”dagi ahkom oyatlar tafsirida quyidagi adabiyotlar asosiy manbalar bo‘lib xizmat qilgan:

Abu Bakr Ahmad ibn Ali Roziy qalamiga mansub “Ahkomu-l-Qur’on” (Qur’ondagi ahkomlar tafsiri) asaridan 97 o‘rinda istifoda etilgan va ba’zi o‘rinlarda muallif nomini zikr etmay iqtibos keltirilgan. Ibnul Arabiyning “Ahkomu-l-Qur’on” nomli tafsir kitobiga juda ko‘p muroja‘at qilgan. Bu borada eng ko‘p tayanilgan manbalardan ikkinchisi deyish mumkin va jami bo‘lib mazkur asardan 131 o‘rinda foydalanilgan. E’tiborli tomoni shuki, Zuhayliy havolalarda “Ahkomu-l-Qur’on” deb muallifiga nisbat bermay umumiy zikr etsa, undan Ibn Arabiyning “Ahkomu-l-Qur’on” asrini nazardan tutgan bo‘ladi. Ushbu nomdagi boshqa manbalarga muroja‘at qilganida esa, ularni muallif nomlari bilan birga keltiradi. Masalan, Jassosning “Ahkomu-l-Qur’on” asari ko‘rinishida.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Andalusiy Qurtubiyning “Al-Jome li Ahkomi-l-Qur’on” tafsiri Vahba Zuhayliyning eng ko‘p tayangan manbasi bo‘lib, undan jami 380 (uch yuz sakson) o‘rinda foydalangan.

Zamonaviy tafsir manbalari ham Vahba Zuhayliyning diqqat e’tiborida bo‘lgan, o‘rni kelganda hamasr mufasssirlar asarlari orqali oyatlar ma’no-mazmunini kengroq ochib berishga va ba’zan keltirgan xulosalarini asoslashga harakat qilgan. Ulardan eng ko‘p murojaat qilinganlari sifatida quyidagi ikki manbani alohida zikr etish lozim. Zamonaviy ilm-fan va texnologiya yutuqlaridan keng foydalangan Tantoviy Javhariy (1870-1940)ning “Al-javahir fi tafsir-l-Qur’oni-l-karim” nomli tafsir asaridan va Muhammad Mustafu Murog‘iyning “Tafsiru-l-Murog‘iy” nomi bilan mashhur “ad-Durusu-d-diniyyah” asaridan bir necha o‘rinda foydalangan..

Ikkinchi bobning “*Asarning tarkibiy tuzilishidagi o‘ziga xos jihatlari*”, deb nomlangan ikkinchi paragrafida “Tafsiru-l-munir” asarida oyatlar tafsir qilish

mobaynida muroja'at qilingan masalalar, manbaning mavzular qamrovi, tarkibiy tuzilishidagi ajralib turadigan o'ziga xos jihatlar tadqiq etilgan. "Tafsiru-l-munir" asari zamonaviy tafsir manbalari orasida katta mavqega ega bo'lib, hozirgi kunda qamrovi kengligi va malumotlarining ishonchliligi va oyatlar mazmuni, maqsadlari zamonaviy hayot bilan har tomonlama bog'liq tarzda bayon etilgani bilan sohaga oid tadqiqotlarning asosiy tayanch adabiyoti sifatida baholangan. Asarning to'liq nomi "Tafsiru-l-munir: fil aqida va-sh-shari'a va-l-manhaj" (التفسير المنير في العقيدة والشريعة والمنهج – "Islom aqidasi, shariati va asoslarini yorituvchi tafsir") bo'lib, unda mumtoz va zamonaviy tafsir manbalarining yutuqlari jamlangan holda oyatlardan olinadigan foydalar, ibrat va xulosalar naqliy hamda ilmiy-mantiqiy dalillar, tahlillar bilan asoslab berilgan. Oyatlarning maqsadi, ulardagi qilingan targ'ib va qaytariqlarni ochib berishda ularning nozil bo'lish sabablari, so'z va iboralarni lug'aviy hamda grammatik tahlillariga urg'u qaratgan.

Doktor Vahba Zuhayliy tafsir asarining qamrab olgan mavzulari va masalalari borasida quyidagi so'zlarni aytib o'tadi: "Men har bir yozganimda muayyan qaysidir fikr, ma'lum bir mazhab yoki o'zimning avvalgi qarashlarimdan iborat e'tiqodim ta'sirida yozmadim. Ammo mening uslubim va yondoshuvim arab tili lug'atiga muvofiq bo'lgan, shar'iy istilohlarga eng yaqin va munosib Quroni karim yo'naltirgan to'g'ri-haq yo'ldir. Shu bilan birga mufassir ulamolarning fikrlarini omonatdorlik va katta ahamiyat bilan o'rganib, mutaassiblik va tarfkashlik illatlaridan xoli bo'lgan holda yondashdim".

Muallif keltirgan har bir hadislarining manbasini hadis ilmidagi ishonchli manbalar "Sihohlar"dan keltirishga va ulardan olinadigan hukmlarni bayon qilishga katta e'tibor qaratgan. Shu bilan birga oyat ishora qilgan sobit sahih ma'noning o'zi bilan kifoyalanib qolmasdan gohida ular haqidagi ba'zi ilmiy nazariyalarga ham ishora qilgan. Lekin, bu borada oyatlar mazmuni qamrab olmagan ma'nolarni va masalarni keltirib, bog'lashga kata urg'u qaratmagan.

Asar muallif Vahba Zuhayliy hayotining oxirlarida hijriy 1408 yilda Zulqa'da oyining 13-sanasi (milodiy 1988-yil 27-iyun)da Damashq shahrida yozib tugatilgani qayd etilgan. Kitob birinchi bor 1991 yil Damashqda "Doru-l-fikr" matbaasida 16 jildda bo'lib, o'n ming nusxada chop etilgan. To'plamning oxirgi jildi manbada kelgan shaxs va joylar hamda asar nomlari, hadislar, mavzularlardan iborat ko'rsatgichlarga bag'ishlangan.

"Tafsiru-l-munir" asarida oyatlar tafsiridagi tartib dastavval oyatda kelgan so'zlarning lug'aviy, iste'moldagi mazmuni, grammatik tahlili, stilistik-balog'iy ma'nolari, ortidan oyatning umumiy mazmuni keltirilib, unda ko'tarilgan maqsad va vazifalar, hukm va tavsiyalarni ochib berish bilan davom etgan. Oyatlar qamrab olgan mavzudan kelib chiqib, unga munosib nom berilgan va uni sarlavha tarzida ochib berilgan. Muallif ketma-ket kelgan oyatlarni o'rtasidagi mazmun va mavzu doirasidagi o'zaro muvofiqlik munosabatini yoritib bergan. Oyatda mavjud ma'noning o'zi bilan kifoyalanib qolmay, unda ishora qilingan masalalarga, gohida zamonaviy-ilmiy nazariyalar hamda texnikaviy, tibbiy kashfiyotlarga to'xtalgan.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi "*Muallifning oyatlarni tafsir qilishdagi yondashuvi*" deb nomlangan bo'lib, unda asarning uslubiy xususiyatlari, oyatlarni tafsir etishda qo'llanilgan yondashuv ochib berilgan. Zuhayliy Qur'ondagi

mo'jizalarni zamonaviy ilm-fan bilan asoslab tafsir qilgan hamda Qur'oni karim bundan bir ming to'rt yuz yil oldin aytib o'tgan masalalarning bugunga kelib ilm-fan amalda isbotlashi muhim voqeyilik ekaniga urg'u qaratgan.

Vahba Mustafu Zuhayliy "Tafsiru-l-munir"da oyatlarni quyidagi tartib asosida tafsir qilgan va ular atrofidagi masalalarni ochib bergan:

- 1) oyatlarni mavzusiga qarab taqsimlab, sarlavhalar qo'yish;
- 2) oyatning umumiy ma'nosini bayon qilish;
- 3) oyatdagi so'zlarning lug'aviy ma'nolarini izohlash;
- 4) oyatlarning nozil bo'lishi atrofidagi sabab bo'lgan voqealar, sahif rivoyslarni keltirish;
- 5) Payg'ambarlar qissalari, ilk islom davridagi yirik hodisa va voqealarni eng ishonchli siyrat kitoblari asosida yoritish;
- 6) tafsir va bayon qilish;
- 7) oyatlardan kelib chiqqan hukmlar haqida so'z yuritish;
- 8) oyatlarning grammatik tahlillari va ulardagi balog'iy ma'nolarni ochib berish.

Muallif o'zi keltirgan hadislarning manbasini va ulardan olinadigan hukmlarni bayon qilishga katta e'tibor qaratgan. Shu bilan birga oyat ishora qilgan asl ma'noning o'zi bilan kifoyalaniq qolmasdan, gohida ular atrofidagi ilmiy nazariyalar, zamonaviy kashfiyotlarga ham to'xtalib o'tgan. Oyatlardan kelib chiqqan shar'iy hukmlarni bayon qilishda bugunki zamonaviy jamiyat hayotiga aloqador turli masalalarni "voqelik fiqhi" (فقه الحياة) sarlavhasi ostida izohlab bergani natijasida Qur'on karimni bugungi kun bilan bog'liq tomonlarini tushunish imkoniyati oshgan.

Dissertasiyaning uchinchi bobi "**Tafsiru-l-munir**"ning zamonaviy masalalar echimidagi ahamiyati" deb nomlangan va unda "Tafsiru-l-munir" asaridagi jamiyat tarbiyaviy o'sishiga doir masalalar, bugungi kundagi axloqiy muammolar oldini olishga doir xulosalar, ijtimoiy munosabatlarni sog'lomlashtirishga qaratilgan taklif va echimlar hamda zamonaviy iqtisodiy masalalarning shar'iy asoslari, ularga qo'yilgan talablar tadqiq etilgan.

Bobning "*Tafsiru-l-munir*" asarining axloqiy muammolarni hal etishdagi o'rni" deb atalgan birinchi paragrafida Vahba Zuhayliyning jamiyatning turli bo'g'inlariga aloqador oyatlarni tafsir qilish orqali bildirgan fikrlari, olg'a surgan g'oyalari bugungi o'zbek jamiyatidagi mavjud muammo va masalalar echimidagi ahamiyati tahlil etilgan.

Zuhayliy sog'lom jamiyat asoslarini qurishda mustahkam oila instituti barpo etishning o'rni katta ekanligini ta'kidlaydi. Oila nikoh rishtasi bilan bog'lanishi zaruratdir. Jamiyatda axloqsizlik sabablaridan asrash va a'zolarni turli buzilish omillaridan tiyish uchun nikoh eng qulay echim ekanini, muallif aytib o'tadi. Olim nikohni iqtisodiyotni o'sishi va farovon hayot uchun vosita deb biladi. Kishi nikohlanish bilan o'z nafsini jiddiy va samarali ishlarga safarbar etadi hamda oilasi va atrofdegilar uchun yuqori ahamiyatli vazifalar bian mashg'ul bo'lishga kirishadi.

Vahba Zuhayliy jamiyatning bir bo'lagi bo'lgan etimlarga e'tibor masalasiga alohida ahamiyat bergan. Qur'on va sunnat etimlarga g'amxo'rlik qilishga



chaqirishiga qaramay, insonlarning ko'pchiligi bu masalaga kam e'tibor berishini ta'kidlaydi. Shuningdek, etimlarga e'tibor ularning huquqlarini ta'minlash jamiyatda turli jinoyatchilik holatlarini oldini olish, mulkchilik munosabatlarini sog'lomlashtirishga olib kelishini tahlillar orqali ochib beradi.

Olim tomonidan radikalizm hamda axloqiy buzulishning yomon bir ko'rinishi sifatida "jihod", "hijrat", "diyoru-l-islom" va "diyoru-l-kufr" kabi diniy tushunchalarni asl mazmun-mohiyati va ularni xato talqini ochib berilgan. Tarixdan ma'lumki, Movarounnahrda islom kirib kelganidan to hozirgi kungacha har doim aholi orasida musulmonlar mavjud bo'lgan. Balki aholining katta qismi har doim musulmon dini vakillari nisbatiga to'g'ri kelgan. Hatto o'tgan ikki asrda dindorlarga qarshi qattiq rejim o'rnatilgan va aholining kam sonli a'zolari majbur bo'lgani sabab yurtdan chiqib ketishgan bo'lsa-da, musulmon aholining aksari o'z yurtida yashab qolgan. Ushbu tarixiy fakt Markaziy Osiyo davlatlari, yuqorida keltirilgan Imom Abu Hanifaning shartlariga ko'ra, "Harb diyori" (kufr davlati)ga aylanib ketgani haqidagi adashgan toifalarning da'volari asosisz ekani, balki ushbu hududlar "Islom diyori" hukmida davomiy qolgani ma'lum bo'ladi.

